




## ISTE'MOL BOZORI

2018 yil yanvar-iyun

**Chakana savdo tovar aylanmasi joriy yilning yanvar- iyun oylarida o'tgan yilning shu davriga nisbatan 103,2 foizni tashkil etdi.**


Shuningdek, viloyat bo'yicha ulgurji savdo 2018 yilning yanvar-iyun oylarida 3050,7 mlrd.so'mni, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 107,1 foizni, ovqatlanish korxonalarining tovar aylanmasi esa joriy yilning yanvar-iyun oylarida 196,6 mlrd.so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 102,3 foizni tashkil etdi.

**2018 yil yanvar-iyun oylarida ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda,  
chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'atlari  
(o'tgan yilning shu davriga nisbatan, foizda )**



Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Zangiota tumani (11,5 foiz), Olmaliq shahar (10,0 foiz), Qibray tumani (6,9 foiz), Yangiyo'l shahar (5,7 foiz) va Bekobod shahri (5,5 foiz) chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

### **Shahar va tumanlar kesimida jami chakana savdo tovar aylanmasining ulushi, foizda**



## O'TGAN DAVRLARDA KICHIK TADBIRKORLIKNING CHAKANA SAVDODAGI ULUSHI

Kichik tadbirkorlikning tovar aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 103,5 foizni tashkil etdi.

Umumiy chakana savdo tovar aylanmasining 79,3 foizini tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik umumiy tovar aylanmasining deyarli 674.0 mlrd.so'mi uyushmagan savdo hisobiga to'g'ri keldi. Ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 10,5 foizni tashkil etdi.

